THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

‘‘RAQS VA DOIRA UYG‘UNLIGINING BUYUK USTASI’’.

Rajabova Mohlaroy,
‘‘Xoreografiya jamoalar raxbari’’ ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlari nomzodi,
Dotsent Po‘lat Tashkenbayev

Annotatsiya

O‘zbek tilida

Ushbu maqolada o‘zbek milliy raqs va doira san’atining yirik namoyandasi Usta Olim Komilovning hayoti, ijodiy faoliyati hamda milliy xoreografiya rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. San’atkorning doira ijrochiligi va raqs harakatlarini uyg‘unlashtirishdagi mahorati, milliy raqs an’analarini saqlash va rivojlantirishdagi xizmatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Usta Olim Komilovning ijodiy merosi va uning o‘zbek raqs san’ati taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar:

Usta Olim Komilov, o‘zbek milliy raqsi, doira san’ati, xoreografiya, milliy raqs, raqs harakatlari, ijodiy meros, san’atkor.

Abstract

This article explores the life and creative activity of Usta Olim Komilov, one of the prominent representatives of Uzbek national dance and doira art, as well as his contribution to the development of national choreography. The article examines the artist’s mastery in combining doira performance with dance movements and his significant role in preserving and developing traditional Uzbek dance. Particular attention is also paid to the creative legacy of Usta Olim Komilov and his contribution to the development of Uzbek national dance art.

Keywords:

Usta Olim Komilov, Uzbek national dance, doira art, choreography, national dance, dance movements, creative legacy, artist.

Аннотация

В данной статье освещаются жизнь и творческая деятельность Уста Олим Комилова — одного из выдающихся представителей узбекского национального танца и искусства игры на дойре, а также его вклад в развитие национальной хореографии. Рассматривается мастерство артиста в сочетании исполнения на дойре с танцевальными движениями, а также его значительная роль в сохранении и развитии традиций узбекского национального танца. Особое внимание уделяется творческому наследию Уста Олим Комилова и его значению в развитии узбекского танцевального искусства.

Ключевые слова:

Уста Олим Комилов, узбекский национальный танец, искусство дойры, хореография, национальный танец, танцевальные движения, творческое наследие, артист.

O‘zbek milliy raqs san’ati xalqimizning-asrlar davomida shakllangan ma’naviy va madaniy merosining yorqin ifodasidir. Unda xalqning tarixi, urf-odatlari, his-tuyg’ulari va go‘zallikka bo‘lgan munosabati mujassam. Bu bebeho san’atning rivojlanishida o‘z hayotini milliy raqs va musiqa san’atiga bag‘ishlagan ko‘plab buyuk san’atkorlarning o‘rni beqiyosdir. Ana shunday ulug‘ siymolaridan biri-Usta Olim Komilovdir.

Usta Olim Komilov o‘zbek raqs va doira san’ati tarixida chuqur iz qoldirgan noyob iste’dod sohibi edi. Uning san’atdagi faoliyati doira sadolari bilan raqs harakatlarining betakror uyg‘unligini namoyon etgan. Usta Olim Komilov uchun

doira shunchaki cholg'u emas, balki raqsning ruhini ochib beruvchi, har bir harakatga jon baxsh etuvchi vosita edi.

Usta Olim Komilov (1875-1953) – o'zbek sahna raqsini yaratilishi va rivojlanishiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan, milliy musiqa va raqs san'ati namunalarini jahon sahnasiga olib chiqgan buyuk san'atkorlardan biridir. Ustoz sahnalashtirgan raqslari, ijro etgan doira usullari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy davlatlarda ham muvaffaqiyat qozongan va ular orqali minglab xorijiy tomoshabinlar ko'p asrli tarix va boy an'analarga ega bo'lgan madaniyatimiz va san'atimiz namunalari bilan tanishishdi.

Usta Olim Komilov 1875 yilda Marg'ilon shahrida to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. Bolaligida yetim qolib, u o'n yoshidan yog'och aravalar yasaydigan ustaxonada ishlay boshladi. Ushbu hunarda Olim professional mahorat cho'qqilarini zabt etdi va buning uchun uni "Usta" deb atashgan. Shu bilan birga u musiqa san'atiga ham qiziqadi. Usta Olim 1918-yilda Marg'ilondagi maktab-internat va korxonalarda musiqa to'garaklari tashkil qiladi.

1926-yilda Usta Olim Komilov an'anaviy teatr san'atining taniqli ustasi Yusufjon Qizik Shakarjonov bilan birgalikda O'zbekistonda konsert faoliyatining asoschisi Muhiddin Qori-Yoqubov tomonidan tashkil etilgan Konsert-etnografik truppaga qo'shiladi.

Usta Olim Komilov milliy balet san'atini shakllanishiga ham salmoqli hissa qo'shgan. U.O.Komilov 1929—39-yillarda O'zbek musiqali teatrida baletmeyster sifatida faoliyat yuritgan. Birinchi o'zbek baletlari: I.Roslavetsning "Paxta" (1933), F.Talning "Shohida" (1939), Ye.Brusilovskiyning "Gulyandom" (1940) spektakllarini sahnalashtirishda qatnashgan, xoreograf F.V. Lopuxovga "Akbilyak" baleti ustida ishlaganda ijodiy yordam ko'rsatgan (1943).

O'zbek musiqali teatrida Usta Olim Komilov va Mukarram Turg'unboyeva tomonidan sahnalashtirilgan birinchi milliy balet - "Paxta" baleti – 1933-yilda yaratiladi. Bu o'zbek xalq raqsi va klassik xoreografiyani uyg'unlashtirish bo'yicha ilk o'rinish edi. Bu balet hali teatr tashkil etilmasidan avval Tamaraxonim, Roziya

Karimova, Usta Olim Komilov tomonidan sahnalashtirildi va raqsni ular o‘zlari ijro etdilar.

1930-yillarning o‘rtalarida yaratilgan eng yirik asarlar “Farhod va Shirin” (V.Uspenskiy) va “Gulsara” (R.Glier, T.Sodiqov) musiqali dramalaridir. Bu spektakllardagi xoreografik kompozitsiyalar bevosita Usta Olim ishtirokida yaratilgan va sahnalashtirilgan.

1939-yilda Tamaraxonim YE.Brusilovskiyning “Gulandom” baletini sahnaga qo‘yishga kirishdi. Baletning sahnalashtiruvchilari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, I. Arbatov va V. Gubskaya masalaga ijodiy yondoshib, o‘zbek baletini yevropa klassik baleti va milliy raqslar sintezi sifatida yaratdilar va 1940-yilda spektakl tomoshabinlarga taqdim etildi. Epizodning mazmuni va xarakteriga qarab, klassik baletdan yoki milliy raqs harakatlaridan foydalanish masalasi o‘z yechimini topar edi. Masalan, birinchi pardadagi bahor sayilini tasvirlovchi ommaviy raqslar, Xorazm xalq o‘yinlaridan tanlab olindi va ajoyib raqs shakllari yaratildi. Bu raqslar voqea rivojiga uzviy bog‘langan edi.

Shu bilan birga postanovkachilar ayrim hayotiy harakatlarni pardozlab, illyustrativ qo‘l harakatlarini esa bir qadar umumlashtirib berdilar. Harakatlarni bir uslubga solish zarur edi, chunki postanovkachilar juda ko‘p milliy o‘yinlardan foydalangan edilar. Turli janr va uslubdagi bu raqslarni aniq bir uslubga, balet spektakllari uslubiga solinmasa, milliy raqs na klassik xoreografiyaning o‘rtasida uzilish bo‘lib qolar, bunday umumiy xoreografik uslub yaratmasdan, balet spektaklini ham yaratib bo‘lmas edi.

Baletning ommaviy raqslari klassik raqs qonunlari asosida tuzilgan edi. Sahnalashtiruvchilar milliy raqs xarakteridan, uning o‘ziga xos qo‘l harakatlaridangina emas, balki duetlarni tuzishda harakatlarning ruhidan ham foydalandilar.

Yengil, sodda yarimattityudlar va yarimarabeskalar, qo‘llarni osmonga ko‘tarib, oyoq uchida nazokat bilan turishlar spektakl qahramonlarining milliy xarakterini yanada kuchaytirib berdi va obrazlarni konkretlashtirib ko‘rsatish uchun

xizmat qildi. Shu tarzda, balet raqsi qonunlari asosida tuzilgan xalq raqsi sahnada obraz yaratishda yordam berdi.

Usta Olim Komilov ijodiy izlanishda davom etib, “Farhod va Shirin” hamda “Gulsara” spektakllari va birinchi o‘zbek milliy operasi “Bo‘ron” uchun raqslar sahnalashtirdi. Ustoz san’atkor tinimsiz ijod bilan shug‘ullanib, yana bir o‘zbek operasi - “Buyuk kanal” uchun ham raqslar yaratdi.

Usta Olim Komilov baletmeyster sifatida sahnalashtirgan I.Roslavetsning “Paxta” va F.Talning “Shohida” nomli birinchi o‘zbek baletlarining musiqasi va xoreografiyasi xalq manbalariga asoslangan edi. Kompozitor F. Tal “Shohida” baleti partiturasiga “Aylanaman, yorlarim”, “Bilaguzuk”, “Yor-yor” va boshqa xalq kuylarini kiritda. Avj sahnasi Farg‘ona raqs turkumi “Katta o‘yin” usullariga asoslanadi. Garchi baletlarning simfonik musikasi bulsada, Usta Olim Komilov tomonidan unga milliy cholgular jur sifatida kiritilgan.

“Shohida” baletining premyerasi 1939 yilda bo‘lib o‘tdi. Musiqa ijodkori - F.S. Tal, librettochilar Y. Yusupov va A. Bender, sahnalashtiruvchilar A. Tomskiy, Usta Olim Komilov va M. Turg‘unboyeva bo‘ldilar. Bosh rollarni M. Turg‘unboyeva, R. Karimova, D. Alimov, L. Sarimsoqova, YE. Baranovskiy, L. Petrosova, I. Oqilov ijro etdilar.

“Shohida” baletining sahnalashtirilishi tarixiy voqea bo‘lib, spektakl yil davomida muvaffaqiyat bilan sahnada namoyish etildi. Baletning syujeti o‘sha davrda dolzarb bo‘lgan ayollarning ozodlikka chiqish mavzusi bilan bog‘liqdir. Spektakl dramaturgiyasi ikki o‘zaro qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatga asoslanadi va oddiy qishloq qizining hayoti haqida hikoya qiladi. Shohida birinchilar qatorida paranjisini tashlaydi va yoshlar ichida targ‘ibot ishlarini olib boradi.

Balet Farg‘ona maktabi raqslaridan iborat bo‘ldi. Spektaklni sahnalashtiruvchilar tarixiy voqealar va milliy xarakter klassik balet vositalari bilan emas, balki milliy raqs bilan namoyon etilishi zarurligini tushundilar.

Balet beshta ko‘rinishdan iborat bo‘lib, baletning xoreografik partiturasi turli raqslardan – ommaviy, duet, ansambl va yakka raqslardan tuzilgan. Ommaviy raqslar: qizlarning tut barglari bilan raqsi (2-ko‘rinish), dehqonlar raqsi, non bilan raqs, “Yor-yor”, vals, yakuniy paxta bilan raqsdan iborat. Yakka raqslar – devona raqsi, Botir raqsi, sotuvchi qiz raqsidir.

Baletga o‘zbek milliy raqslaridan tashqari tojik, uyg‘ur raqslari va “Lezginka” ham kiritildi. Balet tantanali katta raqs sahnasi bilan yakunlanadi.

“Shohida” baleti o‘zbek milliy raqslarida ulkan ifodaviy vositalar mavjudligini ko‘rsatib berdi. Baletni sahnalashtirgan A. Tomskiy, Usta Olim Komilov va M. Turg‘unboyevalar milliy raqs vositalari bilan katta sahna spektaklini va uning dramaturgik g‘oyasini ochib berdilar.

Usta Olim Komilov o‘zbek xalqining boy raqs merosini mukammal o‘zlashtirdi hamda o‘z shogirdlariga o‘rgatib keldi. Bu merosning butun boyligi, serjilo qirralari, uslublari va go‘zalligini saqlash hamda kelajak avlodga yetkazish hozirgi san’atkorlarning yuksak vazifasidir.

Ijodkorning hayot yo‘li- san’atga cheksiz sadoqat, mehnat va izlanishlar bilan yo‘g‘rilgan ibratli yo‘ldir. Uning ijodiy merosini o‘rganish orqali nafaqat bir buyuk san’atkorning hayoti bilan, balki o‘zbek milliy raqs san’atining shakllanish va rivojlanish jarayoni bilan ham yaqindan tanishishimiz mumkin.

Usta Olim Komilovning hayoti va ijodiy yo‘lini o‘rganish milliy raqs merosimizni yanada chuqurroq idrok etish va anglash, ma’naviy hamda estetik ahamiyatini belgilash, o‘zbek raqs san’atining turli nazariy va amaliy qirralarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

va L.A O‘zbek milliy raqs san’ati tarixidan. -T.: 2001.

2.Sagatov K. Muxammedova M. O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari.-T.:

3.Muxammedova M.A Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi.-T.:Fan dunyosi,